

4. Парпиев Б.Б. Роль банков в развитии крупных институциональных инвесторов национального рынка. Ученый XXI века. 2016. № 3-2 (16). с. 59-63

MOLIYA BOZORIDAGI XORIJIY INVESTITSIYALARNING QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI KENGAYTIRISHDAGI ROLI

Xujayev Xurshid

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Bugungi globallasuv sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun sohalar va tarmoqlardagi har bir bosqichda qo'shimcha qiymat yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonlarni samarali tashkil etish maqsadida qo'shilgan qiymat zanjiriga e'tibor qaratilmoqda. Qo'shilgan qiymat zanjiri mahsulot yoki xizmatning dastlabki xomashyo bosqichidan boshlab yakuniy iste'molchiga yetib borishigacha bo'lgan barcha jarayonlarda qiymat yaratish tizimi hisoblanib, har bir bosqichda mahsulotga yangi qiymat qo'shib borishini nazarda tutadi. Qo'shilgan qiymat zanjiri iqtisodiyotda resurslardan boshlab yakuniy iste'molchigacha bo'lgan jarayonlarda qiymat yaratishning asosiy mexanizmi bo'lib, xomashyo qazib olish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, marketing va sotuv bosqichlarini yagona tizimga birlashtiradi. Mazkur jarayonlarni yanada samarali tashkil etishda iqtisodiyotdagi ishtirokchilar aksariyat hollarda qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadi. Shu sababli iqtisodiyotdagi ishtirokchilari faoliyatiga moliya bozori orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda bu orqali qo'shilgan qiymat zanjirini samarali tashkil etish zarur.

Umumiy holda global qo'shilgan qiymat zanjiri o'lchovlari mamlakatlarning xalqaro ishlab chiqarish va savdo tizimidagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ortga bog'langan ishtirok ko'rsatkichi mamlakat eksporti tarkibida xorijiy resurs va komponentlardan foydalanish darajasini ifodalab, ishlab chiqarishning tashqi bozorlarga qanchalik bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich orqali iqtisodiyotning global ta'minot zanjirlariga integratsiya darajasi baholanadi. Oldinga bog'langan ishtirok esa milliy mahsulot va xizmatlarning boshqa davlatlar eksportida oraliq mahsulot sifatida qayta ishlatilishini aks ettiradi. Bu ko'rsatkich mamlakatning global zanjirdagi strategik rolini va qo'shilgan qiymat yaratish salohiyatini aniqlashga yordam beradi (1-jadval).

Tadqiqotlardan ko'rishimiz mumkinki, so'nggi o'n yilliklarda xorijiy investitsiyalar global qo'shilgan qiymat zanjiri kengayishining asosiy omili bo'lib kelgan. Xorijiy investitsiyalar va global qo'shilgan qiymat zanjiri o'rtasida o'zaro bog'liqlik kuchayib bormoqda. Chunki qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirishdagi asosiy jihatlardan biri bu mazkur jarayon uchun zarur bo'ladigan arzon moliyaviy resurslarni o'z vaqtida shakllantirish hisoblanadi. Xorijiy moliya bozorlaridan xorijiy investitsiya jalb qilish qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish uchun zarur kapitalni shakllantirish imkonini beradi.

Global qo'shilgan qiymat zanjiri o'lchovlarining ko'rsatkichlari⁹⁵

No	Ko'rsatkich nomi	Mazmuni
1	Ortga bog'langan global qo'shilgan qiymat zanjiri ishtiroki	Eksport mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarish uchun xorijiy resurslar va komponentlarni import qilish jarayonini ifodalaydi hamda eksport tarkibidagi xorijiy qo'shilgan qiymat ulushi (FVA) orqali o'lchanadi.
2	Oldinga bog'langan global qo'shilgan qiymat zanjiri ishtiroki	Mamlakat tomonidan eksport qilingan tovar va xizmatlarning boshqa davlatlar eksportida oraliq mahsulot sifatida qayta foydalanilishini anglatadi hamda bilvosita qo'shilgan qiymat (DVX) ko'rsatkichi bilan baholanadi.
3	Umumiy global qo'shilgan qiymat zanjiri ishtiroki	Eksport tarkibidagi xorijiy qo'shilgan qiymat (FVA) va uchinchi mamlakatlarga yo'naltirilgan bilvosita qo'shilgan qiymat (DVX) yig'indisini ifodalaydi.
4	Global qo'shilgan qiymat zanjiri intensivligi	Mamlakatning umumiy global qo'shilgan qiymat zanjiri ishtirokining uning tashqi savdo hajmiga (eksport + import) nisbati orqali aniqlanadi va $(FVA + DVX)/(eksport + import)$ formulasi asosida hisoblanadi.

Izoh: DVX = bilvosita qo'shilgan qiymat (boshqa mamlakat eksportida qo'shilgan ichki qiymat); FVA = xorijiy qo'shilgan qiymat.

“Bugungi kunda global qo'shilgan qiymat zanjiri va xorijiy investitsiyalarning o'zaro bog'liqligi mintaqalar kesimida teng taqsimlangan deb bo'lmaydi, chunki faqat uchta mintaqalar (Sharqiy Osiyo va Tinch okeani, G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika) global ishlab chiqarish tarmoqlariga yuqori darajada integratsiyalashgan”⁹⁶. Mazkur mintaqalarda rivojlangan moliya bozorlari, yuqori texnologik salohiyat va barqaror institutsional muhit xorijiy investitsiyalar oqimini faol jalb etmoqda. Natijada ular nafaqat kapital import qiluvchi, balki kapital eksport qiluvchi hududlar sifatida ham global iqtisodiyotda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu integratsiya darajasi yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport hajmini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Boshqa ko'plab rivojlanayotgan mintaqalarda esa qo'shilgan qiymat zanjirlari, asosan, xomashyo yetkazib berish yoki past qo'shilgan qiymatli bosqichlar bilan cheklanib qolmoqda. Infratuzilma, logistika, moliyaviy vositachilik va texnologik transfer imkoniyatlarining cheklanganligi ayrim hududlarning global zanjirlarga chuqur integratsiyalashuviga to'sqinlik qilmoqda.

Moliya bozori va qo'shilgan qiymat zanjiri o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Moliya bozori orqali jalb qilingan kapital xomashyo ta'minotidan boshlab ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarigacha bo'lgan barcha bosqichlarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi (1-rasm).

⁹⁵ Foreign Direct Investment and Global Value Chains // The World bank Group, 2021.

⁹⁶ <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/c9af0143184de77cb58ddd5adf024508-0350012021/original/Chapter-1-An-Investment-Perspective-on-Global-Value-Chains.pdf>



1-rasm. Moliya bozori va qo'shilgan qiymat zanjiri bog'liqligi⁹⁷

Dastlabki investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va texnologik modernizatsiyani amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, moliyaviy resurslar infratuzilmani rivojlantirish orqali logistika va ta'minot tizimining samaradorligini oshiradi.

Marketing va sotuv bosqichlarida moliya bozori mahsulotlarni bozorga chiqarish va reklama faoliyatini moliyalashtirish imkonini yaratadi. Aylanma mablag'lar bilan ta'minlash korxonalarining uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Moliya bozori mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va servis xizmatlarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Innovatsiya va ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish orqali yangi mahsulot va texnologiyalar yaratilishiga sharoit yaratadi. Eksport operatsiyalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Mazkur jarayonlar natijasida moliya bozori va qo'shilgan qiymat zanjiri o'rtasidagi uzviy bog'liqlik iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymat yaratish va barqaror o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Moliya bozorida xorijiy investitsiyalarning qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirishdagi rolini o'rganish orqali quyidagilarni qayd etish maqsadga muvofiq:

⁹⁷ Dan Wang, Zejun Gong, Yebin Wang. Stock market development and the global value chain position of manufacturing industry, *Research in International Business and Finance*, Volume 75, March 2025. - P. 5; <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0275531924005324> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

Birinchiidan, moliya bozori qo'shilgan qiymat zanjirining barcha bosqichlarida asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi, chunki u xomashyo ta'minotidan tortib, ishlab chiqarish, logistika, marketing, sotuv va servis xizmatlarigacha bo'lgan jarayonlarni uzluksiz moliyalashtirish orqali korxonalarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi, shuningdek, investitsiyalar va aylanma mablag'lar yordamida texnologik modernizatsiya hamda infratuzilma rivojiga zamin yaratadi;

Ikkinchiidan, global qo'shilgan qiymat zanjirlariga samarali integratsiyalashuv moliya bozorining rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liq, chunki rivojlangan moliya bozori xorijiy investitsiyalarni jalb etish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda eksport operatsiyalarini kengaytirish imkonini berib, milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi;

Uchinchiidan, qo'shilgan qiymatni maksimal darajada oshirish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun moliya bozori institutlarini takomillashtirish zarur, ya'ni bank tizimi, fond bozori, sug'urta va investitsiya institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish hamda moliyaviy shaffoflikni ta'minlash orqali ishlab chiqarish zanjirida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan innovatsion va eksportga yo'naltirilgan faoliyatni yuzaga keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Foreign Direct Investment and Global Value Chains // The World bank Group, 2021.*

2. <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/c9af0143184de77cb58ddd5adf024508-0350012021/original/Chapter-1-An-Investment-Perspective-on-Global-Value-Chains.pdf>

3. *Dan Wang, Zejun Gong, Yebin Wang. Stock market development and the global value chain position of manufacturing industry, Research in International Business and Finance, Volume 75, March 2025. - P. 5;* <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0275531924005324>

DATA-DRIVEN PRICING STRATEGY AS A FINANCIAL MANAGEMENT INSTRUMENT FOR ENHANCING DISTRIBUTOR PROFITABILITY AND MARKET STABILITY

Jamoliddinov Faxriyor Shodiyor o'g'li

PhD student at Tashkent State University of Economics

Annotation. *This article examines pricing strategy as a strategic instrument of financial management in B2B distribution companies. The study analyzes how data-driven pricing models, cost-to-serve analysis, and pricing governance mechanisms influence profitability, financial stability, and competitive positioning.*